

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева**

Теоретические основы лексической системы языка в рамках синтагматики и парадигматики.....	203
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida “Xud” so‘zi va uning morfologik belgilari xususida .....	208
<b>M.M.Asrонова</b>	
O‘zbek tilida siyosiy diskurs individualligini ta’minlovchi leksik va morfologik vositalar .....	213
<b>О.М.Khudoyberdieva</b>	
The significance of using idioms and collocations in english and uzbek dance terminology .....	218
<b>G.S.Xolmurotova</b>	
Tilshunoslikda terminologik tizimning aksiologik jihatlari.....	222
<b>N.H.Sayfullayev, A.A.Mirzayeva</b>	
Alisher Navoiyning “Nasoyim UI-Muhabbat” asaridagi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tahlili .....	226
<b>N.A.Abdullayeva</b>	
Tozalikning kishi salomatligiga ta’siri haqidagi o‘zbek va ingliz xalq maqollarining semantik tahlili .....	229
<b>M.T.Qodirova</b>	
Biznes diskursini metonimik modellashtirish.....	233
<b>D.N.Satimova</b>	
Ingliz va o‘zbek tillarining ekzistensial va noekzistensial shakllari: substandart leksik birliklar .....	240
<b>V.A.Tangriyev</b>	
Paulo Koelonning “Alkimyogar” asarining inglizcha va o‘zbekcha tarjimalaridagi paralingvistik vositalar .....	247
<b>V.A.Giyosova</b>	
Murojaat birliklarida aksiologik modallik ifodasi .....	254
<b>R.Kahramanova</b>	
The values of morphological indicators of quantitative words in dialects recorded on ancient monuments.....	260
<b>I.M.Ataboyev</b>	
Ta’na-dashnom konseptining madaniyatlararo farqlari: Ingliz va boshqa tillarda foydalanishni qiyosiy o‘rganish .....	264
<b>M.E.Qodirova</b>	
O‘zbek va ingliz tillarida san’atga oid terminlarning klassifikatsiyasi .....	270

**TILSHUNOSLIKDA TERMINOLOGIK TIZIMNING AKSIOLOGIK JIHATLARI****АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В ЛИНГВИСТИКЕ****AXIOLOGICAL ASPECTS OF TERMINOLOGICAL SYSTEM IN LINGUISTICS****Xolmurotova Gulnora Sattorovna** 

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqola tilshunoslikda terminologik tizimning aksiologik jihatlari tadqiqiga bag'ishlangan. Jumladan, o'zbek va ingliz tillari interyer dizayn sohasi terminologiyasini aksiologik jihatlari ibora va idiomalar tahlili asosida o'rganilan. Shuningdek, unda zamonaviy terminshunoslikning antropotsentrik yo'naliishini hisobga olgan holda, terminologiyaning semantik xususiyatlарining o'ziga xosliklari haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Maqola tadqiqoti terminologiya tizimini o'rganishni lingvistik nuqtai nazaridan olib borgan: maqolaning predmeti interyer dizayn sohasiga oid terminlarning semantik va aksiologik xususiyatlardan iborat, maqsad interyer dizayn sohasi bo'yicha terminlarni qo'llashning eng samarali va o'ziga xos usullari aniqlash. Shu bilan birga, unda terminning barcha ta'riflari umumiy xususiyatlari, ya'ni maxsus, ilmiy, professional foydalanish bilan bog'liqligi ta'kidlangan. Terminlar - bu ma'lum bir maxsus bilim yoki faoliyat sohasi nazariyasining umumiy, konkret yoki mavhum tushunchasini bildiruvchi maxsus maqsadlar uchun tilning leksik birliklari va termin ma'lum terminologik tizimga kirishi uchun izchillik; maxsus ta'rifning mavjudligi; leksik birlikning ohangi va aniqligi; ifoda etishmasligi; stilistik noaniqlik; ob'ektivlik kabi xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligi zikr etilgan. Maqolada ilmiy tahlil qilish uchun jahon va mahalliy tilshunoslarning ilmiy qarashlariga asoslanilgan.

**Аннотация**

Данная статья посвящена изучению аксиологических аспектов терминологической системы в лингвистике. В частности, на основе анализа идиом и фразеологизмов исследованы аксиологические аспекты узбекской и английской терминологии в области дизайна интерьера. Также приводятся сведения об особенностях семантических признаков терминологии с учетом антропоцентрической направленности современной терминологии.

В ходе исследования статьи осуществлено изучение терминологической системы с лингвистической точки зрения: предметом статьи являются семантические и аксиологические особенности терминов, относящихся к сфере дизайна интерьера, цель – определить наиболее эффективный и уникальные способы использования терминов в области дизайна интерьера. При этом подчеркивается, что все определения термина относятся к общим признакам, т.е. специальному, научному, профессиональному использованию. Термины — лексические единицы языка специального назначения, выражающие общее, конкретное или абстрактное понятие теории определенной специальной области знания или деятельности и соответствие термина его рождению в определенную терминологическую систему; наличие специального определения; тон и ясность лексической единицы; отсутствие экспрессии; стилистическая неоднозначность; упоминается, что он должен обладать таким свойством, как объективность. Статья основана на научных взглядах мировых и отечественных лингвистов для научного анализа.

**Abstract**

This article is devoted to the study of axiological aspects of the terminological system in linguistics. In particular, the axiological aspects of the interior design terminology of the Uzbek and English languages were studied based on the analysis of phrases and idioms. It also provides information about the peculiarities of the semantic features of the terminology, taking into account the anthropocentric direction of modern terminology.

During the research of the article, a study of the terminological system was carried out from a linguistic point of view: the subject of the article is the semantic and axiological features of terms related to the field of interior design, the goal is to determine the most effective and unique ways of using terms in the field of interior design. It is emphasized that all definitions of the term refer to general characteristics, i.e. special, scientific, professional use. Terms are lexical units of a special-purpose language that express a general, concrete or abstract concept of the theory of a certain special field of knowledge or activity and the correspondence of the term to entry into a certain terminological system; the presence of a special definition; tone and clarity of the lexical item; lack of expression; stylistic ambiguity; it is mentioned that it must have the property of objectivity. The article is based on the scientific views of world and domestic linguists for scientific analysis.

**Kalit so'zlar:** termin, interior designer, aksiologiya, qadriyat, idioma.

**TILSHUNOSLIK**

**Ключевые слова:** термин, дизайнер интерьера, аксиология, ценность, идиома.  
**Key words:** term, interior designer, axiology, value, idiom.

**KIRISH**

Tilshunoslikda o'rnatilgan antropotsentrism tamoyili inson subyekti orqali atrofdagi voqelikni o'rganishga qaratilgan gumanitar fanlarning turli sohalari o'rtasida yaqin o'zaro ta'sirga olib keldi. E.S.Kubryakova fikricha ta'kidlaganidek, "Antropotsentrism tadqiqotning alohida tamoyili sifatida ilmiy obyektlar birinchi navbatda inson uchun ularning roliga, hayotidagi maqsadiga qarab, inson shaxsini rivojlantirish va takomillashtirish funksiyalariga ko'ra o'rganiladi" [3; 212-b].

Antropotsentrik burlishga muvofiq, tilshunoslikning aksiologiya bilan o'zaro ta'siri shakllanmoqda - insonning voqelikka qadriyat munosabatlari, uning dunyoning qiymat tuzilishini tushunish va inson faoliyatining turlarida qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirish qobiliyati. Shunday qilib, tilshunoslikda antropotsentrik tamoyil til hodisalarini "til va odam" diadasida ko'rib chiqishga urinish bilan bog'liq, shu munosabat bilan aksiologiya va lingvoaksiologiyada antropotsentrism tamoyilini hisobga olgan holda olib borilayotgan tadqiqotlarning ahamiyatini qadriyatlarni lingistik tushunish doirasini kengaytirish imkon berishini qayd etish zarur [4; 5-b]. Qadriyatlarni tushuntirish til tizimining turli darajadagi birliklari tomonidan ifodalangan baholash orqali amalga oshiriladi, jumladan, terminlar orqali ham.

**ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYA**

Tilshunoslikda terminlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va amal qilishiga keng e'tibor beriladi. XX asrning 30-yillari boshlarida terminologiya tilshunoslarning tadqiqot obyektiga aylandi. Zamonaviy tilshunoslikda turli bilim sohalarining maxsus lug'atini ifodalovchi terminologik birliklarni lingistik tahlil qilish kuchayib bordi. Mahalliy va xorijiy mualliflarning ko'plab tadqiqotlari terminologiya masalalarini qamrab oldi. Xususan, V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, A.A.Reformatskiy, D.C.Lotte, V.M.Leychik, X.Felber, R.Doniyorov, A.Hojiyev, A.Madvaliyev, H.Dadaboyev, O.S.Axmedov, I.R.Ermatov, X.D.Paluanova, Sh.N.Abdullayeva, G'.M.Ismoilov, T.Tursunova, S.Grinev, A.Z.Abduraxmanova, L.N.Cherkasova, N.A.Minakova, M.M.Bekmurodov, Z.U.Xakiyeva, I.A. Klepalchenko, K.Sapayev kabilarning ishlarini e'tirof etish mumkin.

Zamonaviy ilm-fanda "termin" tushunchasiga turlicha qarashlar paydo bo'ldi. Albatta, ularning barchasi bir xil ma'noga ega, ammo shunga qaramay, ular bir-biridan biroz farq qildi, chunki ular o'rganishga turli yondashuvlarni ifodalaydi. Jumladan, V.P.Danilenko XX asrning 70-yillari oxiriga qadar (40-70-yillar oralig'iда yaratgan asarlarida) qator terminshunoslarga bag'ishlangan ilmiy ishlarni tahlil qilib, «termin» tushunchasiga 19 ta ta'rif [2]keltirdi. S.D.Shelov esa, XX asrning 80-90-yillari va XXI asr boshida terminning tabiatini oydinlashtirish, ta'riflarini qiyoslash va baholash maqsadida e'lon qilingan tilshunoslari va terminologiyaga oid ilmiy va o'quv nashrlari, lug'at va ma'lumotnomalardan olingan 31 ta ta'rifni tahlil qildi va ularni quyidagicha umumlashtirdi: *agar til belgisi (so'z birikmasi, so'z qo'shilmasi, alohida simvolli so'z birikmasi yoki so'z qo'shilmasi va h.k.) bilimning qaysidir sohasiga oid tushunchani ifodalasa va shunga muvofiq ushbu til belgisini anglatgan birliklar ongli ravishda tanlagan definitsiya (izoh, tushuncha)ga ega bo'lsa, u termindir* [6;795-799-b.].

O'zbek tilshunosi O.S. Ahmedov fikriga ko'ra, "terminlar aslida leksik-semantik jihatdan umumadabiy qolipga ega bo'lib, ular umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali o'tadi. Zero, terminlar va umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiradigan leksik birliklardir" [1; 21-b.]. Darhaqiqat, terminlar umumxalq tili bo'lsa-da, ba'zan ular faqat ma'lum bir sohani anglatadi va shu sohaga oid millatning qadriyatlarini ham namoyon etadi. Albatta bu borada, interyer-dizayn sohasiga oid terminlarni tadqiq etish ham ahamiyat kasb etadi. Shu bois, terminlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish maqsadida interyer-dizayn sohasiga oid terminlarning aksiologik xususiyatidagi o'ziga xosliklarni aniqlash maqolaning asosiy masalalaridan biridir.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Zamonaviy jamiyatni dizayn va uning mahsulotlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Faoliyatning bu turi tsivilizatsiyamizga madaniyatning uch turi: *ma'naviy, moddiy* va *ma'naviy-moddiy* shaklda mustahkam kirib keldi.

"Dizayn" so'zi lotincha "desieigno"dan olingan, ya'ni dastavval "designara" (Lotin)→ "disignrn" (qad. Italian)→ "disegno" (Italian)→ "dessein" (Fransuz)→ "design" (English) – bu

Uyg'onish davrida loyihalar, chizmalar va asarning g'oyalarini anglatadi. Keyinchalik Angliyada "dizayn" tushunchasi paydo bo'lib, u g'oya, chizma, naqsh sifatida tarjima qilingan. Interyer dizayni (interior design) - dizaynni rejalashtirishning bir turi bo'lib, uning mavzusi me'moriy interyerning tuzilishi va asosiy maqsadi xonaning funksiyasini, subyekt-fazoviy muhitni va inson faoliyatini uyg'un birlikka olib kelishdir. Interer dizayni mo'ljallangan makonning utilitar, estetik, texnik va konstruktiv va ba'zi hollarda badiiy va majoziy xususiyatlarini birlashtirish uchun mo'ljallangan. Bundan ko'rinish turibdiki, mazkur soha o'z terminologik tizimiga ham ega.

Dizayner xonaning tartibi, yorug'lik, shamollatish tizimlari, akustikadan boshlab butun dizayn jarayonini boshqaradi; devor bezaklari: va mebelni joylashtirish va navigatsiya belgilarini o'rnatish bilan yakunlanadi. Shu bois, interer dizaynga oid terminlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin. Biz buni o'zbek va ingliz tillari misolida ko'ramiz:

1) **Xonani yoritish dizayni**: o'zb.: *filament lighting, accent lighting, albery, baffle, flambeau, chinoiserie pendant light, bar lamp, lampshade, illuminator, lamp, floor lamp* va b.; ing.: *lampa, chiroq, shag'am, moy chiroq, stol chiroq, shift yoritgich, qandil, osma chiroq, chilchiroq, shamchiroq*.

2) **Mebel dizayni**: ing.: *sofa, arm chair, table, wardrobe, acanthus leaf, abrasion wear, adaptation, air bed, angel bed, astragal, backsplat, bag table, ball & claw, balloon back chair, bar stool, barrel back, bassinet, ottoman, banquette, burjar* va b.; ing.: *taxmon, sandiq, kursi, tokcha, shkaf, divan, xontaxta, javon, belanchak, beshik, stul, stol, karavot, kuti, skameyka, parta* va b.

3) **Shamollatish tizimlari**: o'zb.: *Whole-house ventilation, central ventilation, in-room air cleaners, hospital ventilation, smarthome ventilation, air conditioning, natural ventilation, window ventilator, pin page* va b.; ing.: *ventilator, shamollatish tizimlari, konditsioner, soyabon, yelpig'ich* va b.

4) **Devor bezaklari**: o'zb.: *abstract, anthemion, art glass, art object, boiserie, sketching, accent wall in the interior, abacus, acanthus, entablement/entablature, arabesque, arcatura, flying buttresses, atticus, basilica, cabochon, filigree, flock wallpaper* va b.; ing.: *ganchkori bezak, yog'och bezak, Kichik me'moriy ko'pikli devor bezaklari, kichik dekorativ elementlar, dekorativ devor aksessuarlari, dekorativ devor bezaklari, me'moriy bezak, gulqog'oz* va h.;

5) **Xona bezaklari**: o'zb.: *accessible design, accessories, afghan, grisaille, candle follower, cartouche, cassone, chevron, eggshell, endive* va b.; ing.: *aksessuarlar, gulam, sham, kartina, so'zana, xona gullari, sholcha, chimildiq* va b.

6) **Soha egasi**: o'zb.: *decorator, designer, house decorator, interior decorator, room decorator* va b.; ing.: *bezovchi, dekorator, dizayner, uy dekoratori, interer dekoratori, xona dekoratori* va b.

Sh. S. Xudaykulova ta'kidlaganidek, aksiolingistik tadqiqotning vazifasi muayyan til vakili nutqiga xos *ibora, kognitiv mexanizm, muloqot strategiyasini* o'rganish [5; 12-b.] asosida qaysi qadriyatlar til tashuvchisiga mansub guruhniki ekanligini aniqlashdan iborat. Shunday ekan, biz ham "interer dizayn"ga oid terminlardan "*devor*" qatnashgan iboralar ustida to'xtalmoqchimiz:

**Devor** — bino, uyning tomini ko'tarib turuvchi yoki xonalarga ajratuvchi tik qismi. Mazkur so'zdan quyidagi iboralar kelib chiqqan:

**devorning ham qulog'i bor** – hushyor bo'lib gapirmoqqa undash. Mas.: *Bas qil deyman, ko'p gapirma behuda, Devorning ham qulog'i bor, go'rso'xta!* (H. Olimjon);

**devorni ushlatib ketmoq** – aldab ketmoq;

**devor bo'lib qolmoq** – qo'rqinch yoki hayratdan rangi oqarib, serrayib turmoq. Mas.: *U yigitga tikilib turdi-da, hali shunaqami? deb yuziga bir shapaloq tushirdi. Yigit yuzini ushlagancha devor bo'lib qoldi.* (U.Nazarov, Birinchi uchrashuv);

**devorga gapirmoq** – gap uqmas yoki birovning gapiga qulog solmaydigan, loqaydlik bilan qaraydigan kishilarga qarata aytildi. Mas.: **Devorga gapiryapmanmi?**;

**devorga tanbur chertganday** – birovning gapi, nasihatni e'tiborsiz qolganda ishlatiladigan ibora. Mas.: *Ming marta aytganman bu megajinga, bir nimani tayinlik qilib qo'ygin deb. Qayoqda, devorga tanbur chertganday.* (A.Muhiddin, Aybsiz aybdor);

**devori qiyomat** – hech narsa eshitmaydigan, qulog'i tamoman bitgan; garang, kar;

## TILSHUNOSLIK

**rangi devor bo'limoq** – rangi oqarmoq yoki kulrang tusga kirmoq (charchoq, qo'rquv yoki g'azabdan). Mas.: *U rangi devor bo'lib, ko'llarini o'rikka tirab, qaddini rostladi, go'yo ikki opas singilga qarashga uyalganday.* (O.Yoqubov, Er boshiga ish tushsa);

**to'rt devor ichida yashamoq** – tashqi olamdan, jamoatchilikdan ajralgan yoki majburan ajratilgan holda ichkarida qullarcha hayot kechirmoq. Mas.: *To'rt devor ichida yashab ado bo'layotgan Shahzodaxon bir kuni yuzini parang durra bilan yarim to'sib, eshik tirqishidan tashqariga mo'raladi.* (K. Yashin, Hamza) [7].

“Devor” – ingliz tiliga “wall”deb tarjima qilinadi, “wall” qatnashan inglizcha idiomalar ham mavjud, ulardan namunalar: 1) **back to the wall** –muammoni hal qila olmaganda va yordam so'rab murojaat qiladigan hech kimi bo'limasa, “my back is to the wall” (suyanadigan hech kimim yo'q) deyishda ishlataladi; 2) **Have your back against the wall** – o'zingizni himoya qilishingiz kerak bo'lgan qiyin vaziyatda bo'lish; 3) **up to the wall** – aqldan ozish darajasida bo'limoq va to'g'ri o'lay olmaslik yoki biror narsa yoki kimdir sizni shunday his qildirmoq; 4) **Come up against a brick wall** – agar muammoni hal qilmoqchi bo'lsangiz va har safar sizda yechim bor deb o'ylaganingizda, u ish bermasa; 5) **Hit the wall** – ushbu ibora ko'pincha sportchilar tomonidan jismoniy charchaganida va davom eta olmasligini his qilganda his-tuyg'ularini tasvirlash uchun ishlatalidi; 6) **talking to a brick wall** – sizni tinglamaydigan yoki tushunmaydigan odam bilan gaplashish; 7) **Chinese walls** – bitta biznesning ikki qismi boshqa qismi nima qilayotganlarini bilishni istamasa ishlataladigan biznes ifodasi; 8) **to be stonewalled** – birov tomonidan ataylab mensimaslik; 9) **wall to wall** – butun maydonni to'ldiradigan narsani tasvirlash; 10) **Go to the wall** – umidsiz ahvolga tushib qolmoq, vayron bo'limoq.

## XULOSA

Demak, tilshunoslikda terminologik tizimning aksilogik jihatdan o'rganish zarur, unda nafaqat terminlar, ular ishtirokidagi frazeologik birliklar orqali umumiy madaniy va milliy-madaniy qadriyatlarning ifodalanishi, o'ziga xos semantika, majoziy mazmun va komponent tarkibiga ega ekanligi chuqur o'rganish imkonи bo'ladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov O.S. Ingliz va o'zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari. – Filol. fanlari doktori .... diss. – Toshkent, 2019. –231 b.
2. Даниленко В. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977.
3. Кубрякова, Е.С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX века / Е.С. Кубрякова// Язык и наука конца 20 века: Сб. ст. – Москва: Институт языкоznания РАН, 1995. – С. 212.
4. Мирошников, Ю. И. Аксиология: концепция эмотивизма / Ю. И. Мирошников. – Екатеринбург: Институт философии и права УрО РАН, 2007. – 164 с.
5. Xudaykulova Sh. S. O'zbek tili aksilogik leksikasining semantik-stilistik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 48 b.
6. Шелов С.Д. Еще раз об определении понятия «термин» // Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского. Лингвистика, 2010. № 4 (2). – С. 795-799.
7. <https://izoh.uz/word/devor>